

MARKAZIY OSIYO POYTEXT SHAHARLARINING BOSH REJALARI: SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

Bayqabilov Xusnudin Mardanovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

“Geografiya” kafedrası dotsenti,

Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

<https://orcid.org/0000-0002-0094-6013>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyo poytaxtlari — Toshkent, Astana, Bishkek, Dushanbe va Ashxobod shaharlarining amaldagi hamda istiqbolli bosh rejalari tahlil qilinadi. Bosh rejalarning shaharlardagi hududiy rivojlanish, transport va muhandislik infratuzilmasi, yashil hududlar, ijtimoiy obyektlar, renovatsiya, rekonstruksiya hamda aglomeratsion jarayonlarni tartibga solishdagi ahamiyatiga e‘tibor qaratiladi. Tadqiqotda poytaxtlarning bosh rejalari rejalashtirish muddati, hujjatlarning amaldagi holati, yetakchi rivojlanish yo‘nalishlari va shaharsozlik xususiyatlari bo‘yicha qiyosiy tizimlashtirilgan. Toshkent uchun tarixiy muhitni saqlash, renovatsiya, transport va aglomeratsion rivojlanish; Astana uchun politsentriklik, ixchamlik va aglomeratsion yondashuv; Bishkek uchun infratuzilmaviy yangilash, ekologik muvozanat va jamoat transportini rivojlantirish; Dushanbe uchun yo‘naltirilgan hududiy kengayish; Ashxobod uchun esa monumental-reprezentativ modelni zamonaviy raqamli, transport va barqaror infratuzilma elementlari asosida modernizatsiya qilish tendensiyalari aniqlanadi. Maqolada Markaziy Osiyo poytaxtlarining shaharsozlik rivojlanishida bosh rejalarning strategik boshqaruv vositasi sifatidagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit sozlar: Markaziy Osiyo, poytaxt shaharlar, bosh reja, shaharsozlik, urbanizatsiya, aglomeratsiya, renovatsiya, rekonstruksiya, politsentriklik, transport infratuzilmasi, yashil hududlar, barqaror rivojlanish.

ГЕНЕРАЛЬНЫЕ ПЛАНЫ СТОЛИЦ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ГРАДОСТРОИТЕЛЬНОГО РАЗВИТИЯ

Байкабилов Хуснудин Марданович

доцент кафедры «География» Шахрисабзского государственного педагогического института, доктор философии (PhD) по географическим наукам

<https://orcid.org/0000-0002-0094-6013>

Аннотация. В данной статье анализируются действующие и перспективные генеральные планы столиц Центральной Азии — городов Ташкента, Астаны, Бишкека, Душанбе и Ашхабада. Особое внимание

уделяется значению генеральных планов в регулировании территориального развития городов, транспортной и инженерной инфраструктуры, зелёных зон, социальных объектов, процессов реновации и реконструкции, а также агломерационных процессов. В исследовании генеральные планы столиц систематизированы и сопоставлены по срокам планирования, текущему статусу документов, основным направлениям развития и градостроительным особенностям. Для Ташкента выявлены тенденции сохранения исторической среды, реновации, развития транспортной системы и городской агломерации; для Астаны — полицентричности, компактности и агломерационного подхода; для Бишкека — инфраструктурного обновления, обеспечения экологического баланса и развития общественного транспорта; для Душанбе — направленного территориального расширения; для Ашхабада — модернизации монументально-репрезентативной модели на основе современных элементов цифровой, транспортной и устойчивой инфраструктуры. В статье раскрывается роль генеральных планов как стратегического инструмента управления градостроительным развитием столиц Центральной Азии.

Ключевые слова: Центральная Азия, столицы, генеральный план, градостроительство, урбанизация, агломерация, реновация, реконструкция, полицентричность, транспортная инфраструктура, зелёные зоны, устойчивое развитие.

MASTER PLANS OF THE CAPITAL CITIES OF CENTRAL ASIA: MODERN TRENDS IN URBAN DEVELOPMENT

Bayqabilov Khusnudin Mardanovich

Associate Professor of the “Geography” Department, Shahrisabz State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy (PhD) in Geographical Sciences

<https://orcid.org/0000-0002-0094-6013>

Abstract. This article analyzes the current and prospective master plans of the Central Asian capitals—Tashkent, Astana, Bishkek, Dushanbe, and Ashgabat. Particular attention is paid to the role of master plans in regulating spatial development, transport and engineering infrastructure, green spaces, social facilities, renovation, reconstruction, and agglomeration processes in these cities. The study provides a comparative and systematic classification of the master plans of the capitals according to their planning horizons, current status, major development priorities, and urban planning characteristics. For Tashkent, the study identifies the preservation of the historic urban environment, renovation, transport development, and agglomeration as key priorities; for Astana, polycentric development, compactness, and an agglomeration-based approach; for Bishkek, infrastructure modernization, ecological balance, and the development of public transport; for Dushanbe, targeted spatial expansion; and for Ashgabat, the modernization of a monumental-representative urban model through the integration of contemporary digital, transport, and sustainable infrastructure

elements. The article highlights the role of master plans as strategic urban management instruments in the urban development of the capitals of Central Asia.

Keywords: Central Asia, capital cities, master plan, urban planning, urbanization, agglomeration, renovation, reconstruction, polycentricity, transport infrastructure, green spaces, sustainable development.

KIRISH (INTRODUCTION). Poytaxt bosh rejasi shaharning istiqboldagi hududiy rivojlanishini belgilovchi asosiy shaharsozlik hujjati hisoblanadi. U turar-joy va jamoat hududlarining joylashuvi, transport tizimi, muhandislik infratuzilmasi, yashil hududlar, ishlab chiqarish zonalari va ijtimoiy obyektlarning uzoq muddatli o‘zaro nisbatini belgilaydi. Markaziy Osiyo poytaxtlarida keyingi yillarda bosh rejalarining yangilanishi aholining tez o‘sishi, transport yuklamasi, ekologik muammolar va poytaxt aglomeratsiyalarining kengayishi bilan izohlanadi. Poytaxt bosh rejasi shaharning istiqboldagi hududiy rivojlanishini belgilovchi asosiy shaharsozlik hujjati hisoblanadi. U turar-joy va jamoat hududlarining joylashuvi, transport tizimi, muhandislik infratuzilmasi, yashil hududlar, ishlab chiqarish zonalari va ijtimoiy obyektlarning uzoq muddatli o‘zaro nisbatini belgilaydi. Markaziy Osiyo poytaxtlarida keyingi yillarda bosh rejalarining yangilanishi aholining tez o‘sishi, transport yuklamasi, ekologik muammolar va poytaxt aglomeratsiyalarining kengayishi bilan izohlanadi. Shu nuqtayi nazardan, Markaziy Osiyo poytaxtlarining amaldagi va istiqbolli bosh rejalarini qiyosiy o‘rganish ularning hududiy rivojlanish xususiyatlari, shaharsozlik siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hamda zamonaviy urbanistik modellarini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotning maqsadi Markaziy Osiyo poytaxtlari bosh rejalarining istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlarini qiyosiy tahlil qilish va ularning asosiy shaharsozlik xususiyatlarini tizimlashtirishdan iborat.

2. TADQIQOT METODOLOGIYASI (METHODS)

Tadqiqotda Markaziy Osiyo poytaxtlarining amaldagi va istiqbolli bosh rejalariga oid ma’lumotlarni qiyosiy tahlil qilish va tizimlashtirish yondashuvidan foydalanildi. Tahlil Toshkent, Astana, Bishkek, Dushanbe va Ashxobod shaharlari misolida amalga oshirildi.

Poytaxtlarning bosh rejaları quyidagi mezonlar asosida ko‘rib chiqildi: rejalashtirish muddati, bosh rejaning huquqiy va amaldagi holati, hududiy rivojlanish yo‘nalishlari, transport va muhandislik infratuzilmasining rivojlanishi, yashil hududlar va ekologik yo‘nalishlar, renovatsiya va rekonstruksiya jarayonlari, aglomeratsion rivojlanish, shaharsozlik modelining o‘ziga xos xususiyatlari.

Tadqiqot materiallarini tizimlashtirish jarayonida poytaxtlarning bosh rejaları bo‘yicha keltirilgan rasmiy ma’lumotlar, shahar boshqaruvi va shaharsozlik hujjatlariga asoslangan ko‘rsatkichlardan foydalanildi. Mazkur ma’lumotlar asosida Markaziy Osiyo poytaxtlarining bosh rejaları istiqbol davri va asosiy shaharsozlik yo‘nalishlari bo‘yicha umumlashtirildi.

3. NATIJALAR (RESULTS). Toshkent shahrining 2045-yilgacha bosh rejasi. Toshkentning zamonaviy shaharsozlik siyosatida muhim burilish 2024-yilda yuz berdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-dekabrda 880-son qarori bilan Toshkent shahrining 2045-yilgacha bo‘lgan bosh rejasi tasdiqlandi [1]. Birinchi bosqich 2030-yilgacha mo‘ljallangan. Rasmiy ma’lumotlarda bosh reja qamrab oladigan hudud 43,8 ming gektardan ortiq ekani, uzoq muddatli hisob-kitoblar esa poytaxt va uning urbanizatsion hududida 7 milliondan ortiq aholiga xizmat ko‘rsatadigan tizimni shakllantirish zaruratidan kelib chiqqani qayd etilgan [2].

Toshkent bosh rejasining muhim jihati qurilishni faqat hududni kengaytirish orqali emas, mavjud shahar makonini tabaqalashtirib boshqarish orqali tartibga solishidir. Rejalashtirishda konservatsiya, rekonstruksiya va renovatsiya tamoyillari qo‘llanadi. Konservatsiya hududlarida tarixiy-madaniy meros va shakllangan yashil makonlarni saqlash, rekonstruksiya qismlarida master-rejalar asosida mavjud muhitni takomillashtirish, renovatsiya hududlarida esa eskirgan qurilish fondini bosqichma-bosqich yangilash ko‘zda tutilgan. Bu yondashuv Toshkentning ko‘p qatlamli tarixiy tuzilishini zamonaviy urbanizatsiya bosimidan butunlay ajratmasdan rivojlantirish imkonini beradi. Ya’ni yangi shaharsozlik

modeli tarixiy markazni muzlatib qo'yish bilan emas, uning qimmatli qismlarini saqlagan holda boshqa hududlarda rivojlanish salohiyatini oshirishga asoslanadi.

Transport va ekologik infratuzilma bosh rejaning ikkinchi tayanch yo'nalishini tashkil etadi. 2045-yilgacha yangi ko'cha va yo'llar qurish, jamoat transportining ulushini oshirish, metro va tezkor transport yo'laklarini kengaytirish, shahar atrofi bilan transport aloqalarini yaxshilash nazarda tutilgan. 2025-yilda transport tizimini rivojlantirishga oid qo'shimcha qaror bilan 2030-yilgacha jamoat transportidan foydalanish ulushini 60 foizga, metro tarmog'ini 103 kilometrga yetkazish kabi ko'rsatkichlar ham belgilandi. Yashil hududlarning kengaytirilishi ham Toshkentning yangi rejalashtirish modeliga kiritilgan. 2026-yilda bildirilgan takliflarda Toshkent va unga tutash hududlarda yashil maydonlarni uch barobar kengaytirib, 25 ming gektarga yetkazish istiqboli belgilangan[3]. Shu bois Toshkent bosh rejasini tarixiy muhitni saqlash + renovatsiya + transportga yo'naltirilgan rivojlanish + aglomeratsion kengayish elementlarini birlashtirgan model sifatida baholash mumkin.

Astana shahrining 2035-yilgacha bosh rejasi. Astana bosh rejasining xususiyati shaharning nisbatan yangi poytaxt ekanligi va uning juda yuqori demografik sur'atlarda rivojlanayotganidir. Qozog'iston Respublikasi Hukumatining 2024-yil 25-yanvardagi 33-son qarori bilan Astananing 2035-yilgacha bosh rejasi tasdiqlangan [4]. Hujjatda hisob-kitob davri 2035-yil etib belgilangan va shu davrda shahar aholisining qariyb 2,275 million kishiga yetishi prognoz qilingan [5].

Astana modelining prinsipial xususiyati - shaharning o'zini alohida yopiq hudud sifatida emas, Astana aglomeratsiyasi bilan yaxlit tizim tarzida rejalashtirishdir. Bosh rejada transport, rekreatsiya, ishlab chiqarish, muhandislik va ijtimoiy infratuzilma shahar chegaralaridan tashqaridagi hududlar bilan o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqiladi. 2026–2030-yillarga mo'ljallangan rivojlanish rejasida Astana shaharsozligining uch asosiy tamoyili alohida qayd etilgan: politsentriklik, ixchamlik va muvozanatlilik [6]. Bu tamoyillar markazga haddan

tashqari yuklama tushishini kamaytirib, yashash, xizmat ko'rsatish va ish o'rinlarini bir necha shahar markazlari o'rtasida taqsimlashga xizmat qiladi.

Astana va uning atrofidagi aholi punktlari o'rtasida transport, muhandislik hamda iqtisodiy aloqalarni yaxlitlashtirish ham muhim vazifa hisoblanadi. Astana aglomeratsiyasini 2024–2028-yillarda kompleks rivojlantirish rejasiga shaharning o'zi bilan bir qatorda 40 dan ortiq yaqin aholi punktlari kiritilgan. Shunday qilib, Astana bosh rejasi avvalgi monumental yangi poytaxt qurilishi modelidan bosqichma-bosqich politsentrik va aglomeratsion metropol modeliga o'tishni ko'rsatadi.

Bishkek shahrining 2050-yilgacha bosh rejasi. Bishkekda uzoq vaqt davomida 2025-yilgacha mo'ljallangan avvalgi bosh reja amal qilgan. Shaharning tez kengayishi, yangi turar-joy massivlarining shakllanishi va infratuzilmaning mavjud demografik yuklamaga mos kelmay qolishi yangi rejalashtirish hujjatini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. 2026-yil 24-aprelda Qirg'iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Bishkek shahrining 2050-yilgacha bosh rejasini tasdiqladi va 2006-yilda qabul qilingan avvalgi reja o'z kuchini yo'qotdi [7]. Yangi hujjat poytaxtning hududiy rivojlanishi, funksional zonalashtirish, respublika va mahalliy ahamiyatdagi obyektlarni joylashtirish hamda xavfsiz shahar muhitini shakllantirishni belgilaydi.

Bishkek uchun asosiy masala yangi monumental markaz qurish emas, balki uzoq vaqt davomida yig'ilib qolgan hududiy va infratuzilmaviy nomutanosibliklarni bartaraf etishdir. Bosh reja doirasida tramvay tizimini joriy etish, magistral yo'llarni kengaytirish, yangi transport yo'nalishlarini shakllantirish hamda ijtimoiy infratuzilmani kuchaytirish ko'zda tutilgan. Loyihada 650 dan ortiq ijtimoiy infratuzilma obyektni qurish yoki rekonstruksiya qilish, yashil hududlarni 590 gektardan 2 110 gektargacha kengaytirish istiqbollari qayd etilgan. 2050-yil uchun aholi soni qariyb 2 million kishi miqyosida hisoblangan [8]. Magistral ko'chalarni me'yoriy holatga keltirish, yangi yo'llar, transport tugunlari, tramvay va tezkor avtobus tizimlaridan transport bo'yicha takliflarda foydalanish nazarda tutilgan.

Bishkek tajribasi poytaxtni infratuzilmaviy yangilash, ekologik muvozanat va jamoat transportini kuchaytirish orqali rekonstruktiv rivojlantirish modeli sifatida namoyon qiladi.

Dushanbe shahrining 2040-yilgacha bosh rejasi. Dushanbening amaldagi tuzatilgan bosh rejasi Tojikiston Respublikasi Hukumatining 2017-yil 28-apreldagi 212-son qarori bilan tasdiqlangan. Hujjat 2040-yilgacha hisoblangan bo‘lib, loyiha davri yakunida aholining 1 million 176 ming kishiga yetishi nazarda tutilgan. Rasmiy huquqiy bazada ushbu qaror amaldagi hujjat sifatida qayd etilgan.

Dushanbe bosh rejasida hududiy kengayish aniq yo‘nalishlar asosida belgilangan. Asosiy taraqqiyot shaharning janubiy qismiga, qisman shimol, sharq va g‘arb tomonga yo‘naltirilgan. Qurilish o‘zlashtiriladigan hududni 2040-yilda 25 ming gektargacha, undan keyingi istiqbolda esa 30 ming gektargacha yetkazish ko‘zda tutilgan. Bu model Dushanbeda mavjud markaz atrofidagi hududlarni zichlashtirish bilangina cheklanmay, poytaxt chegaralarini funksional jihatdan kengaytirishni nazarda tutadi. Tog‘li relyef va Hisor vodiysining tabiiy sharoiti sababli shaharning o‘sinh yo‘nalishlari tabiiy-geografik cheklovlar bilan uzviy bog‘langan. Shu bois Dushanbeni yo‘naltirilgan hududiy kengayish va ma‘muriy markazni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish modeli sifatida tavsiflash mumkin.

Ashxobodning 2045-yilgacha istiqbolli bosh rejasi. Ashxobod bo‘yicha vaziyat boshqa to‘rtta poytaxtdan biroz farq qiladi. Ochiq rasmiy manbalarda 2045-yilgacha bo‘lgan yangi bosh rejaning yakuniy tasdiqlangan to‘liq matni hozircha e‘lon qilinganligi aniqlanmadi. 2023-yilda Turkmaniston Prezidenti yangi bosh rejani 2045-yilgacha ilg‘or fan-texnika yutuqlari va xalqaro shaharsozlik tajribasi asosida ishlab chiqish vazifasini qo‘ygan [9].

Turkmaniston Qurilish va arxitektura vazirligining ilmiy-amaliy nashrida 2024-yil iyulda “Türkmen döwlet taslama” tarkibida Ashxobod bosh rejasini ishlab chiqish bo‘limi faoliyat boshlagani ko‘rsatiladi. Unda 2045-yilgacha bo‘lgan reja ustida ish olib borilayotgani, dastlabki bosqich yangi turar-joy va ma‘muriy obyektlar, transport magistrallari hamda hududlarni istiqbolli o‘zlashtirish

masalalarini qamrab olishi qayd etilgan [10]. Loyihada transportni poytaxt markazidan chetlab o'tkazuvchi yo'llar, Ashxobod orqali Anev va Arkadag shaharlarini bog'lovchi tezkor yerusti transport tizimi kabi yechimlar muhokama qilingan. Shuningdek, yangi qurilishlar bilan tarixiy merosni saqlashni uyg'unlashtirish masalasi ham ko'zda tutilmoqda.

2026-yilda taqdim etilgan "Ashgabat-2045" strategik yondashuvida raqamli boshqaruv, yashil energetika, aqlli transport, suvni qayta ishlatish va barqaror infratuzilma kabi yo'nalishlar ilgari surildi. Demak, Ashxobod rivojlanishining hozirgi bosqichini monumental poytaxt modelidan raqamli, transport jihatdan integratsiyalashgan va barqaror shahar modeliga o'tish jarayoni deb baholash mumkin.

1-jadval.

Markaziy Osiyo poytaxtlarining amaldagi va istiqbolli bosh rejalari

Poytaxt	Rejalashtirish muddati	Hujjat holati	Yetakchi yo'nalish	Shaharsozlik xususiyati
Toshkent	2045	2024-yilda tasdiqlangan	Renovatsiya, transport, yashil hududlar	Tarixiy shahar + aglomeratsiya
Astana	2035	2024-yilda tasdiqlangan	Politsentriklik, ixchamlik, aglomeratsiya	Tez o'suvchi yangi metropol
Bishkek	2050	2026-yilda tasdiqlangan	Transport, ekologiya, ijtimoiy infratuzilma	Rekonstruktiv-modernizatsion model
Dushanbe	2040	2017-yilda tasdiqlangan, amalda	Hududiy kengayish, yangi qurilish	Yo'naltirilgan hududiy o'sish
Ashxobod	2045	Yangi bosh reja ishlab chiqish/strategik rivojlantirish bosqichida	Smart infratuzilma, transport, yangi qurilish	Monumental-reprezentativ modelning modernizatsiyasi

Manba: rasmiy hukumat, shahar boshqaruvi va shaharsozlik hujjatlari asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

4. MUHOKAMA (DISCUSSION) Markaziy Osiyo poytaxtlarining amaldagi va istiqbolli bosh rejalari qiyosiy tahlil qilish ularning shaharsozlik rivojlanishida turli modellar shakllanayotganini ko'rsatadi. Bunda har bir poytaxtning tarixiy rivojlanishi, demografik sur'atlari, tabiiy-geografik sharoiti,

mavjud infratuzilmasi va aglomeratsion jarayonlari bosh rejalarning ustuvor yoʻnalishlariga taʼsir koʻrsatmoqda.


Toshkentda tarixiy shahar muhitini saqlash, renovatsiya, transport infratuzilmasini rivojlantirish, yashil hududlarni kengaytirish va aglomeratsion oʻsishni uygʻunlashtirishga asoslangan model shakllanmoqda.

Astana shaharsozlik rivojida politsentriklik, ixchamlik va muvozanatlilik tamoyillariga, shuningdek, shahar va uning atrofidagi hududlarni yagona aglomeratsion tizim sifatida rivojlantirishga urgʻu berilmoqda.

Bishkekda asosiy eʼtibor infratuzilmaviy nomutanosibliklarni bartaraf etish, jamoat transportini kuchaytirish, yashil hududlarni kengaytirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan.

Dushanbeda shahar hududining janubiy, qisman shimoliy, sharqiy va gʻarbiy yoʻnalishlarda kengayishi hamda tabiiy-geografik sharoitlarni hisobga olgan holda hududiy rivojlanish modeli ustuvor hisoblanadi.

Ashxobodda esa mavjud monumental-reprezentativ shaharsozlik modelini zamonaviy raqamli boshqaruv, aqlli transport, yashil energetika, suv resurslaridan samarali foydalanish va barqaror infratuzilma elementlari bilan modernizatsiya qilish tendensiyasi kuzatiladi.



1-diagramma. Markaziy Osiyo poytaxtlari bosh rejalarining istiqbolli hisob davri
(Diagramma sun'iy intellekt (AI) dan foydalanib muallif tomonidan ishlab chiqilgan)

Diagramma bosh rejalar faqat hududiy hujjat emas, balki turli vaqt ufqiga ega strategik boshqaruv vositasi ekanini ko'rsatadi. Bishkek eng uzoq — 2050-yilgacha bo'lgan davrni qamrab olsa [11], Astananing amaldagi bosh rejasi 2035-yilgacha hisoblangan [12]. Toshkent va Ashxobodda 2045-yil asosiy istiqbol chegarasi, Dushanbeda esa 2040-yil hisob davri sifatida tanlangan [13].

Xulosa. Markaziy Osiyo poytaxtlarining amaldagi va istiqbolli bosh rejalarini qiyosiy tahlil qilish natijasida ushbu shaharlarda shaharsozlik rivojlanishining turli modellari shakllanayotgani aniqlandi.

Toshkent bosh rejasi tarixiy muhitni saqlash, renovatsiya, transportga yo'naltirilgan rivojlanish va aglomeratsion kengayishni birlashtirgan model sifatida tavsiflanadi. Astana bosh rejasi politsentriklik, ixchamlik, muvozanatlilik va aglomeratsion rivojlanish tamoyillariga asoslangan yangi metropol modelini ifodalaydi. Bishkekda infratuzilmaviy yangilash, ekologik muvozanat va jamoat transportini kuchaytirishga asoslangan rekonstruktiv-modernizatsion yondashuv ustuvor hisoblanadi. Dushanbeda yo'naltirilgan hududiy kengayish va ma'muriy

markazni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish modeli shakllangan. Ashxobodda esa monumental-reprezentativ shaharsozlik modelini raqamli boshqaruv, aqlli transport, yashil energetika va barqaror infratuzilma elementlari bilan modernizatsiya qilish jarayoni kuzatilmoqda.

Umuman, Markaziy Osiyo poytaxtlarining bosh rejalari hududiy rivojlanishni tartibga solish bilan bir qatorda transport, ekologiya, ijtimoiy infratuzilma, tarixiy-madaniy meros va aglomeratsion jarayonlarni yagona shaharsozlik tizimida muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-dekabrda 880-son "Toshkent shahrining 2045-yilgacha bo'lgan bosh rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2024.
2. Toshkent shahrining 2045-yilgacha bo'lgan bosh rejasini: asosiy ko'rsatkichlar [Elektron resurs] // O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi. – Toshkent, 2024–2025.
3. Toshkent shahrining bosh rejasini loyihasini ko'rib chiqildi [Elektron resurs] // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. – 2024. – 9 oktabr
4. О Генеральном плане города Астаны (включая основные положения): Постановление Правительства Республики Казахстан от 25 января 2024 г. № 33 // Информационно-правовая система нормативных правовых актов Республики Казахстан «Әділет».
5. План развития города Астаны на 2026–2030 годы. – Астана: Акимат города Астаны, 2026.
6. Комплексный план развития Астанинской агломерации на 2024–2028 годы. – Астана, 2024.
7. Бишкек шаарынын 2050-жылга чейинки Башкы планы. – Бишкек: Бишкек шаарынын мэриясы, 2026.
8. Генеральный план города Бишкек до 2050 года: основные положения [Электронный ресурс] // Мэрия города Бишкек. – Бишкек, 2026.
9. Папанов М. Генеральный план города Ашхабада, или путешествие в будущее столицы // Строительство и архитектура Туркменистана. – 2024. – № 4 (40). – С. 34–40.
10. Генеральный план Ашхабада до 2045 года: материалы по разработке [Электронный ресурс] // Государственное информационное агентство Туркменистана. – Ашхабад, 2023–2026; National Programme for the Socio-Economic Development of Turkmenistan for 2022–2052. – Ashgabat, 2022.
11. Материалы Генерального плана Бишкек–2050: транспортная, экологическая и социальная инфраструктура [Электронный ресурс] // Мэрия города Бишкек. – Бишкек, 2025–2026.

12. Astana Agglomeration Comprehensive Development Plan for 2024–2028. – Astana: Government of the Republic of Kazakhstan, 2024.

13. Постановление Правительства Республики Таджикистан от 28 апреля 2017 г. № 212 «О Генеральном плане города Душанбе» // Единый государственный реестр нормативных правовых актов Республики Таджикистан. – Душанбе, 2017; Градостроительный кодекс Республики Таджикистан. – Душанбе.